



CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING — QATAR —

TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

Tadjibayev Sh. T.

Iqtisodiyot magistri

Annotatsiya. Mazkur tezisda tijorat banklarida kreditlash jarayonini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Kreditlash jarayonining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar, kredit siyosatini takomillashtirish, kredit risklarini samarali boshqarish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni kreditlash amaliyotiga joriy etish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, tijorat banklarida kredit portfeli sifatini oshirish, mijozlarning kreditga layoqatliligini baholash tizimini rivojlantirish va kreditlash jarayonining samaradorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, kreditlash jarayoni, kredit siyosati, kredit riski, kredit portfeli, kreditga layoqatlilik, raqamli bank xizmatlari, kredit samaradorligi.

Abstract. This thesis explores the theoretical and practical aspects of improving the lending process in commercial banks. The study examines the key factors influencing the efficiency of lending activities, the improvement of credit policy, effective credit risk management, and the integration of modern digital technologies into lending operations. Furthermore, it analyzes approaches to enhancing loan portfolio quality, improving borrowers' creditworthiness assessment, and increasing the overall effectiveness of the lending process. Based on the research findings, scientific conclusions and practical recommendations for improving the lending process in commercial banks are proposed.

Keywords: commercial bank, lending process, credit policy, credit risk, loan portfolio, creditworthiness assessment, digital banking, lending efficiency.



CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING QATAR

Tijorat banklari mamlakat moliya tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Banklarning kreditlash faoliyati ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli kreditlash jarayonining samaradorligini oshirish, kredit risklarini kamaytirish va kredit resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

So'nggi yillarda bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar kreditlash mexanizmini takomillashtirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va kredit ajratish jarayonlarini soddalashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, iqtisodiy muhitning o'zgaruvchanligi, inflyatsiya darajasi, kredit risklarining ortishi hamda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi kreditlash faoliyatiga yangi talablarni qo'yimoqda.

Kreditlash jarayonini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri qarz oluvchilarning kreditga layoqatliligini baholash tizimini takomillashtirish hisoblanadi. Bunda mijozlarning moliyaviy holati, pul oqimlari, kredit tarixi, biznes-rejaning iqtisodiy asoslanganligi hamda garov ta'minotining likvidligi kompleks baholanishi zarur. Zamonaviy skoring tizimlari, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalaridan foydalanish kredit qarorlarini qabul qilish sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, kredit monitoringini kuchaytirish ham kredit portfeli sifatini yaxshilashning muhim omillaridan biridir. Kredit mablag'larining maqsadli sarflanishini doimiy nazorat qilish, qarz oluvchining moliyaviy holatini muntazam tahlil qilish hamda muammoli kreditlarni erta aniqlash bank tavakkalchiligini kamaytirishga xizmat qiladi.

Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish kreditlash jarayonining tezkorligi va shaffofligini oshiradi. Onlayn kredit arizalarini qabul qilish, elektron hujjat aylanishi, masofaviy identifikatsiya hamda avtomatlashtirilgan kredit tahlili tizimlari operatsion xarajatlarni kamaytirib, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilaydi.

CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING • QATAR •

1 – jadval

**2021 – 2024 yillarda “Ipak Yo’li” banki tomonida berilgan kreditlarning
tarkibiy ko’rinishi va dinamikasi**

	2021	2022	2023	2024
Savdo	1 586 053,00	2 442 349,00	3 004 744,00	4 189 523,00
Chakana savdo	685 364,00	1 228 662,00	1 702 145,00	1 472 113,00
Ulgurji savdo	863 227,00	1 142 422,00	1 253 026,00	2 528 504,00
Umumiy ovqatlanish	37 462,00	71 265,00	69 573,00	188 906,00
Ishlab chiqarish, shu jumladan	1 258 932,00	1 358 192,00	1 361 131,00	1 319 935,00
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	401 364,00	431 275,00	409 822,00	441 398,00
Yengil sanoat	297 829,00	276 221,00	243 847,00	180 384,00
Oziq - ovqat sanoati	120 568,00	151 822,00	166 919,00	194 334,00
Qurilish materiallari	94 029,00	150 264,00	143 930,00	83 530,00
Kimyo sanoati	148 129,00	138 431,00	136 912,00	289 338,00
Poligrafiya sanoati	36 681,00	76 378,00	119 989,00	79 309,00
Yogochga ishlov va mebel sanoati	72 004,00	74 824,00	84 387,00	40 195,00
Gaz va ko'mir sanoati, rangli metallurgiya	29 405,00	35 491,00	28 512,00	0,00
Un sanoati	12 370,00	11 121,00	15 164,00	912,00
Sog'liqni saqlash	27 641,00	10 642,00	10 072,00	9 058,00
Sanoatning boshqa sohalari	18 912,00	1 723,00	1 577,00	1 477,00

CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING • QATAR •

Jismoniy shaxslar	686 393,00	924 093,00	1 127 103,00	2 533 918,00
Xizmat ko'rsatish	600 610,00	623 130,00	984 413,00	1 872 502,00
Qishloq xo'jaligi	463 224,00	538 032,00	874 421,00	807 240,00
Qurilish	267 092,00	458 849,00	587 044,00	766 620,00
Transport va aloqa	184 570,00	230 960,00	320 791,00	475 555,00
	5 046 874,00	6 575 605,00	8 259 647,00	11 965 293,00

Jadval ma'lumotlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, savdo tarmog'i har yili umumiy kreditlarning katta qismini olgan bo'lib, chakana va ulgurji savdo kreditlari sezilarli darajada o'sishini, bu iste'molchilar va korxonalarning savdo sohasiga bo'lgan talabining ortishini ko'rsatadi. Ishlab chiqarish tarmog'i ham muhim ahamiyatga ega, lekin bu tarmoqdagi kreditlar miqdori yildan-yilga o'zgarib turadi. 2022 yilda bu tarmoqdagi kreditlar yuqori cho'qqiga chiqdi, lekin keyingi yillarda pasayish kuzatildi. Bu tarmoqdagi sub-sektorlarning o'sishi va pasayishi turlicha bo'ldi. Bu tarmoqdagi kreditlar sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirishga yordam beradi. Ushbu kreditlar texnologiyalarni yangilash, ishlab chiqarish liniyalarini kengaytirish va mehnat unumdorligini oshirish uchun ishlatiladi. Jismoniy shaxslar uchun kreditlar yildan-yilga sezilarli o'sdi. Bu aholining iste'mol krediti talabining oshganligini va bank tizimidan foydalanish imkoniyatlarining kengayganligini ko'rsatadi. Ushbu kreditlar iste'mol kreditlari, ipoteka va boshqa shaxsiy ehtiyojlar uchun ishlatiladi. Bu sektordagi kreditlarning o'sishi aholining bank xizmatlaridan foydalanishini oshiradi. Xizmat ko'rsatish tarmog'i ham barqaror o'sishni ko'rsatadi, bu esa ushbu sohaning iqtisodiyotdagi ahamiyatini oshiradi. Ushbu sektordagi kreditlar xizmat korxonalarning rivojlanishi va xizmat sifatining oshishiga yordam beradi. Qurilish sektori iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo'lib, infratuzilma loyihalari, turar-joy va tijorat binolarining qurilishi uchun muhimdir. Ushbu sektordagi kreditlar yangi loyihalarni moliyalashtirish, qurilish materiallarini xarid qilish va qurilish ishlarini amalga oshirish uchun ishlatiladi.

CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING • QATAR •

Transport va aloqa tarmog'i ham barqaror o'sishni ko'rsatadi. Bu tarmoqdagi kreditlar miqdori 2024 yilda sezilarli darajada oshdi. . Bu aholining iste'mol krediti talabining oshganligini va bank tizimidan foydalanish imkoniyatlarining kengayganligini ko'rsatadi. Ushbu kreditlar iste'mol kreditlari, ipoteka va boshqa shaxsiy ehtiyojlar uchun ishlatiladi. Bu sektordagi kreditlarning o'sishi aholining bank xizmatlaridan foydalanishini oshiradi. "Ipak Yo'li" bankidan turli tarmoqlar va sohalar kesimidagi kreditlar tahlili 2021-2024 yillar davomida O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanayotgan tarmoqlarini aniqlashga yordam beradi. Ushbu kreditlar texnologiyalarni yangilash, ishlab chiqarish liniyalarini kengaytirish va mehnat unumdorligini oshirish uchun ishlatiladi. Jismoniy shaxslar uchun kreditlar yildan-yilga sezilarli o'sdi. Bu aholining iste'mol krediti talabining oshganligini va bank tizimidan foydalanish imkoniyatlarining kengayganligini ko'rsatadi. Moliyaviy monitoring bank tizimi faoliyatini nazorat qilishda va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Tijorat banklarida kreditlash jarayonini takomillashtirish bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-quvvatlashning muhim omillaridan biridir. Kreditga layoqatlilikni baholash usullarini takomillashtirish, kredit risklarini samarali boshqarish, kredit monitoringini kuchaytirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish kreditlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tijorat banklari kredit portfelining sifatini yaxshilash, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish va banklarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kreditlash faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlari.

CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING • QATAR •

3. Basel Committee on Banking Supervision. Core Principles for Effective Banking Supervision. Basel, Switzerland.

4. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: Finalising Post-crisis Reforms.

